



<https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i07.061>

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI

Saidova Sumbuloy Otabayevna

O‘zbekiston Respublikasi IIVning

ixtisoslashtirilgan maktab-internati metodisti, mustaqil tadqiqotchi

s.saidova@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0008-5980-4157>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik zarurati, uning nazariy asoslari va zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni hamda uning pedagogik asoslari olingan. Tadqiqot natijalarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim sifati va o‘quvchilarning kelgusidagi kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatida muhim omil ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, ixtisoslashtirilgan maktab, pedagogik zarurat, kompetensiyaviy yondashuv, muloqot madaniyati, og‘zaki nutq, yozma nutq, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ta’lim sifati.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ

Аннотация. В данной статье рассматривается педагогическая необходимость формирования коммуникативных компетенций у учащихся специализированных школ, анализируются её теоретические основы и значение в современной системе образования. Особое внимание уделяется развитию устной и письменной речи учащихся, навыков критического мышления, командной работы, а также эффективного использования информационно-коммуникационных технологий. Объектом исследования является процесс формирования коммуникативных компетенций у учащихся специализированных школ, а также его педагогические основы. Обосновано, что развитие коммуникативных компетенций является важным условием повышения

качества образования и успешной социальной и профессиональной деятельности обучающихся.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, специализированная школа, педагогическая необходимость, компетентностный подход, культура общения, устная речь, письменная речь, критическое мышление, сотрудничество, качество образования.

THE PEDAGOGICAL NECESSITY OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCIES IN STUDENTS OF SPECIALIZED SCHOOLS

Abstract. This article examines the pedagogical necessity of developing communicative competencies among students of specialized schools, highlighting its theoretical foundations and significance in contemporary education. Particular attention is paid to the development of students' oral and written communication skills, critical thinking, teamwork, and the effective use of information and communication technologies. The object of the research is the process of developing communicative competencies in students of specialized schools and its pedagogical foundations. The study concludes that the formation of communicative competencies is an essential factor in improving the quality of education and ensuring students' successful social and professional development.

Keywords: communicative competence, specialized schools, pedagogical necessity, competency-based approach, communication culture, oral communication, written communication, critical thinking, collaboration, quality of education.

Kirish (Introduction)

Globalashuv, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimi oldiga nafaqat chuqur bilimga ega, balki samarali muloqot qila oladigan, jamoada ishlash ko'nikmalariga ega, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan raqobatbardosh shaxslarni tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Kommunikativ kompetensiya shaxsning turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda o'z fikrini aniq, mantiqiy va madaniyatli ifodalashi, suhbatdoshni tinglay olishi, hamkorlikni yo'lga qo'yishi hamda nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish qobiliyatini o'zida mujassam etadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini takomillashtirish, o'quvchilarning fanlarga oid chuqur bilimlarini shakllantirish bilan bir qatorda ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Chunki zamonaviy mehnat bozori yuqori akademik bilim bilan birga samarali muloqot qilish, jamoada ishlash, liderlik, muzokara olib borish va taqdimot ko'nikmalariga ega mutaxassislarni talab etmoqda.

Ixtisoslashtirilgan maktablar umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridan o‘quvchilarning muayyan fanlarga ixtisoslashuvi, murakkablashtirilgan o‘quv dasturlari va yuqori intellektual muhitning mavjudligi bilan ajralib turadi. Bunday muhit o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, ayrim hollarda ularning ijtimoiy faolligi va kommunikativ ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Natijada o‘quvchilar o‘z bilim va g‘oyalarini erkin ifodalash, jamoa bilan samarali hamkorlik qilish, bahs-munozaralarda faol ishtirok etish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishlari ehtimoli ortadi. Shu bois ixtisoslashtirilgan maktablarda kommunikativ kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lishi zarur.

Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni hamda uning pedagogik asoslari belgilandi. Tadqiqot obyekti doirasida kommunikativ kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy komponentlari, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan samarali metod va texnologiyalar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda ixtisoslashtirilgan maktablarda fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga alohida e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, metodik ta’minoti va amaliy texnologiyalari hali ham takomillashtirishni talab etadi. Ayniqsa, interfaol ta’lim metodlari, loyiha faoliyati, debat texnologiyalari, keys-stadi, muammoli ta’lim va raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirish masalalari alohida ilmiy yondashuvni talab qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va ularni kelajakdagi kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatga har tomonlama tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili(Literature review)

Zamonaviy global o‘zgarishlar va axborot texnologiyalarining shiddatli taraqqiyoti ta’lim tizimi oldiga nafaqat chuqur fundamental bilimlarga ega, balki ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Ayniqsa, muayyan fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar kontekstida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirish bilan birga, ularning ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish muloqot madaniyatini ya’ni kommunikativ kompetensiyasini yuksaltirish asosiy pedagogik zaruriyatlardan biriga aylanmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunda ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning bosh mezonidir. An’anaviy ta’lim uzoq yillar davomida o‘quvchiga tayyor bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini singdirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bugungi yangi avlod ta’lim standartlari shaxsning ushbu bilimlarni hayotiy kontekstda, muammoli vaziyatlarda va kasbiy faoliyatda qanchalik samarali qo‘llay olishiga e’tibor qaratmoqda. Boshqacha aytganda, ta’limning yakuniy mahsuli o‘z-o‘zidan quruq ma’lumotlar

jamg‘armasi emas, balki hayotiy va amaliy masalalarni yechishga xizmat qiladigan tayanch kompetensiyalar majmui bo‘lishi shart.

Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari D. Hymes, M. Canale va M. Swain tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular samarali muloqot uchun til bilimlari bilan bir qatorda ijtimoiy va strategik ko‘nikmalarning ham muhimligini asoslab berganlar. L. Bachman kommunikativ kompetensiyani til kompetensiyasi va strategik kompetensiyaning integrallashgan tizimi sifatida talqin etadi. O‘zbek olimlaridan N. Muslimov kompetensiyaviy yondashuv ta‘lim sifatini oshirishning muhim omili ekanligini ta‘kidlaydi. X.B. Tursunov kommunikativ kompetensiyani o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvining asosi sifatida baholasa, F. Sattorova muloqot jarayonida axborotni samarali yetkazish va suhbatdosh bilan samarali hamkorlikni kommunikativ kompetensiyaning muhim ko‘rsatkichlari sifatida e‘tirof etadi. Ushbu ilmiy qarashlar ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni maqsadli rivojlantirishning pedagogik jihatdan zarur ekanligini tasdiqlaydi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Zamonaviy pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablarda ta‘lim olayotgan o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ularning akademik muvaffaqiyati, kasbiy tayyorgarligi hamda ijtimoiy moslashuvining muhim omillaridan biri hisoblanadi [1].

Kompetensiyaviy ta‘lim nazariyasining asoschilaridan biri A.V. Xutorskoy kompetensiyani shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat va tajribasining integrallashgan tizimi sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, kommunikativ kompetensiya o‘quvchining turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish, axborotni tahlil etish hamda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish qobiliyatini ifodalaydi [2]. Ushbu yondashuv bugungi kunda ixtisoslashtirilgan maktablarda kompetensiyaga asoslangan ta‘limni tashkil etishning nazariy poydevorini tashkil etadi.

I.A. Zimnyaya kommunikativ kompetensiyani shaxsning ijtimoiy faoliyatini ta‘minlovchi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida baholaydi. Muallifning ta‘kidlashicha, muloqot jarayonida til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, tinglash madaniyati, fikrni aniq ifodalash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari ta‘lim samaradorligini oshiradi [3]. Ayniqsa, zamonaviy ta‘lim jarayonida kommunikativ kompetensiyalar tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va kreativ yondashuv bilan uzviy bog‘liqdir.

J. Raven kompetensiyani muvaffaqiyatli faoliyatni ta‘minlovchi ko‘p komponentli tizim sifatida tavsiflaydi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya faqat nutq madaniyati bilan emas, balki motivatsiya, mas‘uliyat, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada samarali ishlash kabi shaxsiy sifatlar bilan ham belgilanadi [4]. Shu jihatdan ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlarida ham yoshlarning xorijiy tillarni egallashi, muloqot madaniyatini rivojlantirishi, xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi hamda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [5]. Mazkur hujjatlar ixtisoslashtirilgan maktablarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlaydi.

UNESCO ekspertlari zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarda hamkorlik qilish, muloqot olib borish, tanqidiy fikrlash va umrbod ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar [6]. Xalqaro tashkilot tavsiyalariga ko‘ra, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish interfaol metodlar, loyiha faoliyati, debatlar, muammoli ta’lim hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali samarali amalga oshiriladi.

Mahalliy pedagog olimlar ham kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, o‘quvchilarning erkin fikrlashi, nutq madaniyati, ijodkorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalari, hamkorlikda o‘qitish va muammoli vaziyatlarga asoslangan pedagogik yondashuvlar yuqori samaradorlikka ega [7; 8].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik, didaktik va kompetensiyaviy asoslari chuqur o‘rganilgan bo‘lsa, mahalliy tadqiqotlarda ushbu kompetensiyalarni aynan ixtisoslashtirilgan maktablar sharoitida shakllantirishning pedagogik mexanizmlari hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Shu sababli ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari, metodik modeli va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Natija va Muhokama (Result and Discussion)

Pedagogik jarayonda kommunikatsiyaga shunchaki axborot almashish mexanizmi deb qarash biryoqlama yondashuvdir. Aslida, bu murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, u insonlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, birgalikdagi faoliyat strategiyasini ishlab chiqish va hamkorlikni ta’minlaydi. Kommunikatsiya jarayonida inson o‘z fikrini kimgadir uzatganda o‘z g‘oyasidan mahrum bo‘lmaydi, aksincha, suhbatdoshining fikrlari bilan o‘zaro boyiydi. Bu ma’noda kommunikatsiya “ayirboshlash” emas, balki ma’naviy-intellektual “o‘rtoqlashish” va “baham ko‘rish” jarayonidir. Bugungi rivojlangan va taraqqiy etayotgan zaminda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish dozarb va ahamiyatli hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmun va mohiyati kompetensiyaviy yondashuv masalalari yuqoridagi bo‘limda ko‘rib chiqildi va uning mohiyati ilmiy asoslandi. Ushbu yondashuvlar asosida kommunikativ kompetensiyaning pedagogik ahamiyati va tarkibiy qismlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin(1.1-jadval).

1.1-jadval.

Kompetensiya tarkibiy qismlari	O‘quvchida namoyon bo‘lish xususiyati	Pedagogik ahamiyati
Ijtimoiy sensitivlik va emotsional intellekt	Suhbatdoshning hissiy holatini va ehtiyojlarini to‘g‘ri his qilish (empatiya).	Jamoadagi sog‘lom muhit yaratish va nizolarning oldini olish.
Ijtimoiy kuzatuvchanlik va persepsiya	Muloqot jarayonida nafaqat ko‘rish va eshitish, balki suhbatdoshning ichki niyatini anglash.	Axborotni chuqur tahlil qilish va manipulyatsiyaga uchramaslik.
Nutqiy va nutqsiz (verbal/noverbal) aloqa	O‘z fikrini mantiqan to‘g‘ri, tushunarli va ravon bayon etish, imo-ishoralardan unumli foydalanish.	Ilmiy g‘oyalar, loyihalar va shaxsiy fikrlarni ommaga muvaffaqiyatli taqdim etish (prezentatsiya).
Refleksivlik va moslashuvchanlik	O‘z muloqot uslubini tashqi muhit va sharoitga qarab optimal o‘zgartira olish.	Turli ijtimoiy qatlamlar va xalqaro hamjamiyat vakillari bilan oson aloqaga kirishish.

Avvallo ixtisoslashtirilgan maktab qanday maktab? Uning umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan qanday farqi bor? Degan savollarga to‘xtalib o‘tsak. Fikrimizcha, ixtisoslashtirilgan maktab – u umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining alohida bir turi bo‘lib, unda o‘quvchilar muayyan fanlar, yo‘nalishlar yoki sohalarini chuqurroq va kengaytirilgan dasturlar asosida o‘rganishadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan farqli o‘laroq bu yerda ta’lim jarayoni o‘quvchilarning alohida qobiliyat va iqtidorlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ixtisoslashtirilgan maktablar muayyan fanlar kesimida o‘quvchilarga yanada murakkab va chuqurroq yonashuvlar asosida darslarni tashkil etish asosida bilim beruvchi maskan hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan maktab – bu bolaning o‘z iqtidorini erta kashf etishi va kelajakda tanlamoqchi bo‘lgan kasbiy yo‘nalishiga poydevor qo‘yishi uchun yaratilgan maxsus ta’lim muhitidir.


Ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilar ko‘p hollarda intellektual yuklamaning yuqoriligi sababli akademik muhitga ko‘proq sho‘ng‘ib ketishadi. Bu esa ba’zan ularning ijtimoiy hayotdan uzilib qolishiga yoki o‘z bilimlarini yetkazib bera olmaslik (yopiqlik) muammosiga olib keladi. Shu sababli, ta’lim jarayonida faoliyatli-protsessual komponent doirasida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish orqali bugungi kunning dolzarb ahamiyatli kadr sifatida yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

Birinchidan, kasbiy mehnat quroli sifatida ya’ni har qaysi soha mutaxassisi “inson-inson” tamoyili asosida ishlashini hisobga olgan holda muloqot, boshqaruv va muvofaqqiyatga erishish samaradorligi ortadi. Muloqotsiz kasbiy faoliyatni yuqori sifat darajasiga ko‘tarib bo‘lmaydi;

Ikkinchidan, sinergetik sarmoya ya’ni o‘qituvchilarning o‘zida kommunikativ kompetentlikning yuqori bo‘lishi o‘quvchilarda ham shbu xislatning shakllanishiga olib keladi;

Uchinchidan, kommunikativ jihatdan, rivojlangan o‘quvchi ijtimoiy hayotda faol pozitsiyani egallaydi, o‘zining ijodiy va intellektual salohiyatini maksimal darajada namoyon etish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Zamonaviy global makonda ta‘lim tizimi va kadrlar salohiyati bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ta‘limning rivojlantirishning bosh maqsadi sifatida “bugungi kunda shunchaki bilimdon” kadrni emas, balki kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy hal qila oladigan, mas’uliyatli va raqobatbardosh professional-kompetentli shaxsni shakllantirishni bosh maqsad qilib qo‘yadi. Bu jarayonda ta‘lim sifatining asosiy o‘lchovi sifatida kommunikativ kompetensiya maydonga chiqmoqda. Kommunikativ kompetensiyaning xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi(1-rasm).



1-rasm. Kommunikativ kompetensiyaning pedagogik funksiyalari

Demak, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya ko‘nikmalarining shakllantirish orqali quyidagi funksiyalarni bajarishga erishish mumkin:

Birinchidan, shaxsga yo‘naltirilganlik – ya‘ni nutqiy faoliyat jarayonida o‘quvchi o‘zini tinglovchi (sherigi) o‘rniga qo‘yib ko‘rishni o‘rganadi. Bu esa nutqning aniqligi, ravshanligi va atrofdagilar uchun tushunarligini ta‘minlashga, ya‘ni refleksiv qobiliyatlarning o‘shishiga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, demokratik muloqotni ta‘minlash – ya‘ni har qanday bahsli vaziyatni madaniy munozaraga aylantira oladigan, muammolarni tinch va konstruktiv yo‘l bilan hal qilishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi;

Uchinchidan, kommunikativ-faoliyatli yondashuv – ya‘ni pedagog dars jarayonida sun‘iy emas, balki hayotiy, muhokamaga muhtoj muammoli vaziyatlarni (keysarlarni) yuzaga keltiradi. Bu esa, o‘quvchilarning kasbiy faoliyatida nutq madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish ta‘lim jarayonining muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Mazkur kompetensiyalarni izchil rivojlantirish o‘quvchilarning muloqot madaniyatini, nutqiy faolligini, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini va ijtimoiy moslashuvini yuksaltiradi. Shu bois ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda didaktik

o‘yinlardan samarali foydalanish kommunikativ kompetensiyalarni rivojlan-tirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va kompetensiyaviy ta’lim yondashuvining rivojlanishi sharoitida o‘quvchilarning fikrini aniq va asosli ifoda etishi, samarali muloqot olib borishi, jamoada ishlashi hamda turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi ularning shaxsiy, akademik va kasbiy muvaffaqiyatining muhim omiliga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish faqat til va nutq ko‘nikmalarini takomillashtirish bilangina cheklanmay, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, axborot bilan ishlash va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini ham kompleks ravishda shakllantirishni talab etadi. Shu bois ixtisoslashtirilgan maktablarda interfaol ta’lim metodlari, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, debat texnologiyalari, raqamli ta’lim platformalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan tizimli foydalanish kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali pedagogik vositalari sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning samaradorligi o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va ta’lim muhitini kommunikativ faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan tarzda tashkil etishga bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablarda fanlararo integratsiya va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Kelgusida mazkur yo‘nalishda kommunikativ kompetensiyalarni baholash mezonlarini takomillashtirish, sun‘iy intellekt va raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda ularni rivojlantirishning innovatsion metodik modellarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa ixtisoslashtirilgan maktab bitiruvchilarining xalqaro ta’lim standartlariga mos, raqobatbardosh va kommunikativ jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti.** – Toshkent, 2021.
2. Хуторской А.В. **Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированного образования** // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
3. Зимняя И.А. **Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования** // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42.

4. Raven J. **Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release.** – London: H.K. Lewis, 1984. – 251 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
6. UNESCO. **Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.** – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.
7. Musurmonova O. **Pedagogik kompetentlik va ta’lim sifati.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 256 b.
8. Jo‘rayev R.X. **Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.** – Toshkent: Fan, 2020. – 320 b.
9. Хаймс Д. О коммуникативной компетенции // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 17: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 363–389.
10. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, № 1. – P. 1–47.
11. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 408 p.
12. Сериков В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. – М.: Логос, 1999. – 272 с.
13. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. – Тошкент: Фан, 2004. – 126 б.